

**XORIJDAN MASOFADAN TURIB ISHLASHNING HUQUQIY
MUAMMOLARI**

Jo'raev Islombek Anvarovich

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

Telefon: +998(90)9527337

i.juraev@adliya.uz

Annotatsiya: maqolada xorijdan turib mehnat shartnomasi asosida masofaviy rejimda ishlash imkoniyati bo'yicha mehnat qonunchiligi normalari tahlil qilinadi. Shuningdek, chet el elementi bilan murakkablashgan masofadan turib ishlashga qo'llaniladigan mamlakat huquqini aniqlash bilan bog'liq huquqiy muammolar o'rganilgan hamda tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ish joyi, xorij, masofadan turib ishlash, masofadan turib ishlovchi xodim, soliq solish, virtual aloqa, rezident, xorij kompaniyasi, kollizion norma, milliy rejim.

Globalashuv davrida xodimlarning ba'zilar turli maqsadlarda (xalqaro grantlarda ishtirok etish, malaka oshirish va stajirovka o'tash, til o'rganish, sayohat qilish, davolanish hamda boshqa ob'ektiv omillar) xorijda bir necha oylab bo'lib turishiga to'g'ri kelmoqda. Bunday hollarda ko'pincha xodimlar o'z ish joylarini saqlab qolishni hamda o'zlarini masofadan turib ishlashga o'tkazishlarini ish beruvchiga taklif qilishadi. Mehnat munosabatlarini masofadan turib ishlash rejimida saqlab qolish mehnat shartnomasining har ikki tarafi uchun ham manfaatli bo'lishi mumkin. Shuningdek, xorijdan malakali xodimlarni ishga jalb qilishda ham masofadan turib ishlash taraflar uchun eng maqbul yechimlardan biri sifatida qaralmoqda. Biroq xorijdan turib mehnat shartnomasi asosida masofaviy rejimda ishlash imkoniyati bo'yicha mehnat

qonunchiligida aniq yondashuv va normalar mavjud emas. Bundan tashqari chet el elementi bilan murakkablashgan masofaviy mehnatga qo'llaniladigan mamlakat huquqini aniqlash bilan bog'liq huquqiy muammolar ham kun tartibida turibdi. Mazkur huquqiy muammolar bo'yicha huquqshunoslar B.Musaev, G.Javlieva, D.Abdukarimova, F.Karimovalarning o'z takliflarini ilgari surgan bo'lsalarda, qonunchilik ushbu masalada aniq normalarni yaratmagan yoki tushuntirishlar berilmagan.

Xorijda masofadan turib ishlash masalasi ancha munozarali mavzu hisoblanadi. Buni turli sabablari bo'lib, ulardan biri ayrim mamlakatlar qonunchiligida mazkur rejimda xorijda turib ishlashga ruxsat berilganligi bo'lsa, ayrimlarida bunday faoliyat turi taqiqlangan. Xususan, rus kompaniyalarida umumiy qoidaga ko'ra mamlakat hududidagi xodimlar xorijda masofadan turib ishlay olishmaydi. Buning sababi Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksining 13-moddasiga asosan mehnat qonunchiligi normalari faqat mamlakat hududida amal qiladi, deb tushuntirishadi. Aynan shu masala bo'yicha Mehnat vazirining 2022 yil 9 sentyabrdagi №14-2/OOG-5755-sonli xatida ham tushuntirish berilgan. Rossiya Mehnat va ijtimoiy himoya vazirligi Mehnat kodeksining 312¹-moddasi, 49¹-bobi normalarining talablaridan kelib chiqib, fuqarolarga Rossiya Federatsiyasidan tashqarida turib masofaviy rejimda ishlashga yo'l qo'yilmaydi deb xulosa beradi. Shuningdek ushbu xatda rus kompaniyalariga xorijda masofadan turib ishlash uchun fuqarolik-huquqiy shartnomalardan foydalanish mumkinligi uqtirilgan. Garchi ushbu xat normativ huquqiy hujjat hisoblanmasada, Mehnat vazirligining mehnat to'g'risidagi qonunchilik normalariga tushuntirish berish huquqi inobatga olinsa, xorijda masofadan turib ishlash mumkin emasligini ko'rish mumkin.

Huquqshunoslar O.A.Kojevnikov, M.V.Chudinovskixlarning qayd etishicha, agar masofaviy xodim mamlakat tashqarisida bo'lsa, vaziyat yanada murakkablashadi. Rossiya Mehnat vazirligi ish beruvchilarga mamlakat tashqarida turgan shaxslar bilan masofaviy ish bo'yicha mehnat shartnomasini tuzmaslik, aksincha qilish esa Rossiya Mehnat kodeksini buzish ekanligi bo'yicha o'z qarashlarini bildirgan. Xususan, bunday hollarda ish beruvchilar masofaviy xodimlarga xavfsiz mehnat sharoitlari yaratish va uni muhofaza qilishga oid majburiyatlarini bajara olmay qoladi, chunki mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari faqat mamlakat hududida amal qiladi. Biroq mazkur qarashlar xato hisoblanib, ushbu holatda xodimlar uchun huquqlar, kafolat va kompensatsiyalar doirasi torayib ketadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, masofaviy mehnat ba'zan xalqaro tusga ega bo'ladi, chunki bunda xodim va ish beruvchi turli davlatlarda joylashgan bo'ladi. Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha xodimlarning huquqlarini ta'minlash maqsadida xorijiy kompaniyalar lokal hujjatlarini ishlab chiqishadi, masofadan turib xodimlarni yo'l-yo'riqdan o'tkazishadi hamda ularning bilimlarini sinashadi.

Rossiyalik mutaxassislar xorijdan masofadan turib ishlashda yurisdiksiyani (Mehnat kodeksi faqat mamlakat hududida amal qiladi) buzishdan tashqari ish beruvchi yana bir qator muammolar bilan to'qnash kelishi haqida o'z fikr-mulohazalari bilan bo'lishgan. Xususan, ular bunday muammolarga migratsiya xavfi, soliq solish, mehnatni muhofaza qilish hamda boshqa tashkiliy masalalarni kiritib o'tishadi.

1. “Migratsiya xavfi”, avvalo, bu Rossiyada ishlagan va endi o‘z mamlakatiga qaytishga qaror qilgan xorijiy mutaxassislarga tegishli. 2002 yil 25 iyuldagi Qonunga ko‘ra ular Rossiyada ishlash uchun ruxsatnoma yoki patentda ko‘rsatilgan mintaqadan tashqarida ishlay olmaydilar.

2. Rossiya Federatsiyasi hududida ro‘yxatdan o‘tgan rossiyalik ish beruvchilar yoki chet elda ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kompaniyalarning Rossiya Federatsiyasidagi tarkibiy bo‘linmalarida mehnat shartnomasi asosida masofadan turib ishlovchi xodimlari 2024 yildan boshlab rezident sifatida daromad solig‘ini to‘laydilar.

3. Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksining 312.7-moddasiga binoan ish beruvchi masofadan turib ishlovchi xodimlar bilan bog‘liq baxtsiz hodisalarni tekshirishi hamda ularni “jarohatlanish”lardan sug‘urta qilishi lozim. Shuningdek, u ish uchun ayrim jihozlarni bergan bo‘lsa, ular byo‘icha mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar o‘tkazishi kerak. Agar xorijdan turib ishlovchi masofaviy xodimga ishlash uchun tegishli texnikalar va vositalar berilmagan bo‘lsa, unda ish beruvchi ularning xarajatlarini 312.6-modda bo‘yicha qoplashi talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 452-moddasiga asosan masofadan turib ishlash mehnat shartnomasida belgilangan mehnat vazifasini ish beruvchi joylashgan yerdan, tashkilotning alohida tuzilmasidan (shu jumladan boshqa yerda joylashganlaridan) ish beruvchining bevosita yoki bilvosita nazoratida bo‘lgan statsionar ish joyidan, hududdan yoki ob’ektdan tashqarida bajarish deb belgilangan. Mazkur norma masofadan turib ishlovchilarga nisbatan ushbu ish rejimini faqat ish beruvchi joylashgan yerdan tashqarida bajarish mumkinligi bildirib, uni mamlakat hududi bilan cheklanishi talab qilmaydi. Ushbu

fikrni mehnat sohasidagi boshqa mutaxassislar ham tasdiqlaydi. Xususan, ularning qayd etishicha, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida xodim mamlakat hududidan tashqarida joylashgan masofadan turib ishlashga taqiq mavjud emas. Amalda, ko'plab ish beruvchilar jismonan chet elda joylashgan xodimlar uchun masofaviy ish rejimini allaqachon qo'llab kelmoqdalar.

Huquqshunos B.T.Musaev xalqaro xususiy mehnat shartnomasi va fuqarolik huquqining qoidalari bilan tartibga solinadigan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasining o'zaro nisbatani tadqiq qilgan holda, haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining "Xalqaro xususiy huquq normalarini fuqarolik-huquqiy munosabatlarga tatbiq qilish" deb nomlangan VI bo'limining qoidalari qo'llanilishi mumkin bo'lsa, Mehnat kodeksi asosida tuziladigan shartnomalarga nisbatan fuqarolik qonunchiligida belgilangan kollizion normalarni qo'llash imkoniyati yo'q, degan xulosaga kelgan. Bunga sabab sifatida Mehnat kodeksida milliy rejim prinsipi qat'iy imperativ norma sifatida mustahkamlanganligini ko'rsatib beradi. Ta'kidlash lozimki, milliy rejim prinsipiga ko'ra "Mehnat kodeksining amal qilish doirasi O'zbekiston Respublikasining butun hududida amal qiladi".

Huquqshunos G.Javlievaning ta'kidlashicha, alohida e'tiborga molik jihatlaridan biri – bu mehnatga haq to'lash va daromad solig'i masalasi hisoblanadi. Ya'ni, mamlakat hududidan tashqaridagi xodimlar bilan daromad soliqlari to'g'risidagi masalalar bo'yicha milliy qonunchilikda hech qanday so'z yuritilmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalardan mehnat qonunchiligini takomillashtirishda foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1.

Xorijda masofadan turib ishlashni to'g'ri tashkil qilish uchun xorijda mehnat faoliyatini onlayn shaklda olib borish, xorijda mehnat faoliyatini olib boruvchilarni rezident yoki norezident sifatida tan olish va daromad solig'ini undirish, xorijda masofadan turib ishlashda mehnat muhofazasini hamkorlikda ta'minlash, vaqt poyaslari bo'yicha farqlarni inobatga olish va hamkorlik qilish tartibini belgilashga oid yangi normalar bilan ishlab chiqish;

2.

Xalqaro xususiy mehnat munosabatlarini tartibga solishda lex voluntatis, lex electronica, lex loci laboris, lex banderae, proper law, lex loci contractus, lex delegation kollizion bog'lovchilarni tatbiq qilishning qonunchilik asoslarini takomillashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Musaev B.T.Kovid-19 pandemiyasi transmilliy mehnat munosabatlarini unifikatsiya qilish institutiga qanday ta'sir ko'rsatadi: doktrinal qarashlar va huquqiy yondashuvning istiqbollari//Yuridik fanlar axborotnomasi, №3, 2020. –B.19-27.

2. <https://profkadrovik.ru/articles/working-conditions/sotrudnik-khochet-truditsya-distantcionno-za-granitsey-kak-oformit-i-chto-uchest-22-m10/?from=qa2023#>

3. <https://www.v2b.ru/documents/pismo-mintruda-rf-ot-09-09-2022-g-14-2-oog-5755/>

4. Kojevnikov O.A., Chudinovskix M.V. Regulirovanie truda distantsionnykh rabotnikov v Rossii i za rubejom. Vestnik Sankt-Peterburgskogo universiteta, 2021. –S.573.
5. <https://profkadrovik.ru/articles/working-conditions/sotrudnik-khochet-truditsya-distantsionno-za-granitsey-kak-oformit-i-cto-uchest-22-m10/?from=qa2023>
6. <https://1kadry.uz/#/document/16/218289/dfas2w3yd6>
7. Musaev B.T. Xalqaro xususiy huquqda mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish. Yuridik fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. T.: TDYuU, 2021. 16-bet.
8. Javliyeva G. Masofaviy xodimlar mehnatini huquqiy tartibga solishning xususiyatlari//Mag...diss. –T.: TDYU, 2022.